


# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



**ISSN: 3060-463X**



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI .....   | 10  |
| <b>I. R. Berdikulova</b>  |     |
| KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI .....   | 14  |
| <b>Onorboev Sh.M.</b>   |     |
| A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....  | 26  |
| <b>Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna</b>   |     |
| FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....     | 36  |
| <b>Rahimova Volida Karim qizi</b>   |     |
| XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....  | 42  |
| <b>Nigmatjonov Sardor Abdumannovich</b>   |     |
| РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....   | 49  |
| <b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>  |     |
| KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53 |     |
| <b>Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna</b>   |     |
| MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....                       | 58  |
| <b>Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira</b>  |     |
| KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....  | 61  |
| <b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>  |     |
| ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....  | 67  |
| <b>Салихова Алина Муратовна</b>   |     |
| QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI .....   | 73  |
| <b>Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon</b>  |     |
| XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....  | 78  |
| <b>Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon</b>   |     |
| HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI .....  | 83  |
| <b>Sodiqova Nigora</b>  |     |
| BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....  | 89  |
| <b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>   |     |
| ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....  | 95  |
| <b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>   |     |
| MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....  | 103 |
| <b>G'aniyev Elyor Sobirjonovich</b>   |     |
| DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY .....                          | 110 |
| <b>Damirjon Nurmatovich Soliyev</b>   |     |



|   |     |
|---|-----|
| О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....   | 116 |
| <b>Джумаев Аскар Хайдарович</b>   |     |
| SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....  | 121 |
| <b>Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich</b>   |     |
| KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....  | 127 |
| <b>Muminov Obidjon Odilovich</b>  |     |
| MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....   | 135 |
| <b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>   |     |
| КЛАССИФИКАЦИЯ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ С УЧЕТОМ ОПТИМИЗАЦИИ БИЗНЕС ПРОЦЕССОВ.....   | 141 |
| <b>Джуманов А.А.</b>  |     |
| O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OMILLARNI FAKTOR TAHLIL VA KO'P OMILLI REGRESSIYA ASOSIDA BAHOLASH.....   | 152 |
| <b>V.I. Isroilov, V.B. Ibragimov</b>  |     |
| ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В РАЗВИТИИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ.....  | 158 |
| <b>Мамутова Айгуль Калмурзаевна</b>   |     |
| QUYOSH NOVUZLARIDA SODIR BO'LUVCHI ISSIQLIK JARAYONLARINING BIR O'LCHAMLI MATEMATIK MODEL.....  | 165 |
| <b>M.M. Maxmudova, J.J. Kamolov</b>   |     |
| ФАКТОРЫ, СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЕ БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....   | 172 |
| <b>Алиев Али Комил угли, Каримова А.</b>  |     |
| ISTE'MOL KREDITLARINING ANAMIYATI VA O'ZIGA XOS JIHATLARI.....  | 176 |
| <b>S. Qayumov, M. Qurbonov, A. S. Abduraxmanov</b>  |     |
| AVTOTRANSPORT XIZMATLARI SAMARADORLIK DARAJASINI OMILLI TAHLILI.....  | 179 |
| <b>Raximov Azamat Hamroqulovich</b>   |     |
| MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA FIRMALARNING TASHQI BOZORLARGA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARI: XORIY TAJRIBASI.....  | 183 |
| <b>Ozodova Farida Zarif qizi</b>  |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ЗОЛОВОАЛЮТНЫМИ РЕЗЕРВАМИ И ВНЕШНИМ ДОЛГОМ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТНИКОВ ФИНАНСОВОГО РЫНКА В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....    | 187 |
| <b>Зайналов Жахонгир Расулович, Алиева Сусанна Сейрановна</b>   |     |
| GENERATIV AI ASOSIDAGI ALGORITMIK NARX BELGILASH MEKANIZMLARI: RAQOBAT IQTISODIYOTIDA MONOPOLLASHUV XAVFI, VANO BO'YICHA SOZLASHUV MUAMMOLARI VA ANTIMONOPOL TARTIBGA SOLISH..... | 192 |
| <b>Kendjayeva Dildora Xudayberganovna, Abdumannopova Shirin Olamgir qizi</b>  |     |
| РАЗВИТИЕ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....  | 200 |
| <b>Тураева А. И.</b>  |     |
| THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN KNOWLEDGE DELIVERY MODELS.....   | 204 |
| <b>Daminova Barno Esanovna, Pardayeva Sevinch Sherzod qizi, Inoqov Jasur Komil o'g'li</b>   |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И СТАРТАПОВ.....  | 208 |
| <b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>  |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT VA SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA IJTIMOY-IQTISODIY ADOLAT QOIDALARI.....  | 216 |
| <b>Alimov Nasimjon Hoshimovich</b>  |     |



|  |     |
|--|-----|
| ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....                           | 221 |
| <b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>  |     |
| TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH USULLARI .....   | 228 |
| <b>Daminova Barno Esanovna, Abduraimova Aziza Erkin qizi, G'ofurova Anora Zafar qizi</b>                                 |     |
| XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI..... | 233 |
| <b>Ismailov Naufal Nadirovich</b>  |     |



# XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI (IFRS)GA O'TISH JARAYONIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINING MUAMMOLARI

**Ismailov Naufal Nadirovich**

Farg'ona davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchi

Email: [ismailov.naufal@mail.ru](mailto:ismailov.naufal@mail.ru)



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)ga o'tish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish va takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb muammolar tadqiq etilgan. Tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni tan olish, tasniflash va mahsulot tannarxiga taqsimlashning xalqaro standartlar talablariga moslashuvi tahlil qilingan. Xususan, IAS 2 "Inventories" standarti talablari asosida zaxiralarni baholash hamda umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash masalalari ko'rib chiqilgan. Tahlil obyekti sifatida "Indorama Kokand Textile" AJ misolida ishlab chiqilgan iqtisodiy modeldan foydalanilib, an'anaviy tannarx hisoblash usuli hamda Activity-Based Costing (ABC-costing) yondashuvi natijalari taqqoslangan. Tadqiqot natijalari IFRS talablari asosida xarajatlar hisobini tashkil etish mahsulot tannarxini aniq shakllantirish, moliyaviy hisobotlar ishonchligini oshirish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** IFRS, ishlab chiqarish xarajatlari, xarajatlar hisobi, mahsulot tannarxi, IAS 2, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, ABC-costing, xarajatlarni taqsimlash, to'qimachilik korxonalari, boshqaruv hisobi.

**Аннотация:** В данной статье исследуются актуальные проблемы учета производственных затрат в процессе перехода на Международные стандарты финансовой отчетности (IFRS). Особое внимание уделено вопросам признания, классификации и распределения затрат в соответствии с требованиями международных стандартов. На основе требований IAS 2 «Запасы» рассмотрены особенности оценки запасов и распределения общепроизводственных расходов. В качестве объекта исследования использована экономическая модель, разработанная на примере АО «Indorama Kokand Textile». Проведен сравнительный анализ традиционного метода калькулирования себестоимости и метода Activity-Based Costing (ABC-costing). Результаты исследования показали, что применение подходов IFRS способствует более точному формированию себестоимости продукции, повышению достоверности финансовой отчетности и эффективности управленческих решений. Полученные выводы могут быть использованы для совершенствования системы учета затрат на производственных предприятиях в условиях интеграции в международное экономическое пространство.

**Ключевые слова:** IFRS, производственные затраты, учет затрат, себестоимость продукции, IAS 2, международные стандарты финансовой отчетности, ABC-costing, распределение затрат, текстильные предприятия, управленческий учет.

**Abstract:** This article examines the key issues of production cost accounting during the transition to International Financial Reporting Standards (IFRS). Particular attention is paid to the recognition, classification, and allocation of costs in accordance with international accounting requirements. The study analyzes inventory valuation and overhead allocation procedures based on the provisions of IAS 2 "Inventories." An economic model developed using the example of Indorama Kokand Textile JSC was selected as the research object. A comparative analysis of the traditional costing method and the Activity-Based Costing (ABC-costing) approach was conducted. The findings demonstrate that the implementation of IFRS-based cost accounting practices contributes to more accurate product cost determination, enhances the reliability of financial reporting, and improves the quality of managerial decision-making. The results may serve as a practical basis for improving cost accounting systems in manufacturing enterprises operating within an increasingly globalized economic environment.

**Keywords:** IFRS, production costs, cost accounting, product costing, IAS 2, International Financial Reporting Standards, ABC-costing, cost allocation, textile enterprises, management accounting.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarining jadallashuvi va xalqaro kapital bozorlarining rivojlanishi korxonalar moliyaviy hisobotlariga qo'yilayotgan talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy sharoitda investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun moliyaviy axborotlarning shaffofligi, taqqoslanuvchanligi

hamda ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) global biznes muhitida korxonalar faoliyatini baholashning asosiy vositalaridan biriga aylangan [1].

O'zbekistonda ham iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, investitsion jozibadorlikni oshirish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvni jadallashtirish maqsadida buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori bilan ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotlarni IFRS asosida tayyorlash va taqdim etish amaliyoti joriy etildi [2]. Mazkur islohotlar korxonalar moliyaviy natijalarining xalqaro investorlar uchun tushunarli va taqqoslanuvchan bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

Biroq IFRSga o'tish jarayoni amaliyotda qator metodologik va tashkiliy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar hisobi tizimini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish murakkab masalalardan biri hisoblanadi. Milliy amaliyotda xarajatlarni hisobga olish ko'proq soliq va statistik hisobotlar ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lsa, IFRS konsepsiyasi iqtisodiy mazmunning huquqiy shakldan ustunligini, haqqoniy taqdim etishni va foydalanuvchilarning axborot ehtiyojlarini asosiy mezon sifatida e'tirof etadi [3].

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi korxonalar moliyaviy natijalarini shakllantiruvchi eng muhim elementlardan biridir. Mahsulot tannarxining to'g'ri aniqlanishi foyda ko'rsatkichlari, rentabellik darajasi hamda boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, IAS 2 "Inventories" standartida nazarda tutilgan zaxiralarni baholash, umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va tugallanmagan ishlab chiqarishni hisobga olish talablari ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar hisobini tashkil etishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi [4].

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, IFRSga o'tish jarayonida ishlab chiqarish korxonalarida hisob tizimini yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Jumladan, xarajatlarni xalqaro talablar asosida tasniflash amaliyotini rivojlantirish, zamonaviy axborot tizimlarini yanada moslashtirish hamda hisob siyosatini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish ushbu jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Natijada ishlab chiqarish tannarxining shakllanishi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi bo'yicha amaliy yondashuvlar yanada takomillashib bormoqda.

Mazkur sharoitda ishlab chiqarish xarajatlari hisobining IFRS talablari asosida tashkil etilishi bo'yicha mavjud muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xarajatlar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois IFRSga o'tish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi metodologiyasini takomillashtirish masalasi bugungi kunda buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ga o'tish jarayoni korxonalarda buxgalteriya hisobi tizimini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etishni talab qiladi. Mazkur jarayonda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini shakllantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki xarajatlar to'g'risidagi axborotning ishonchliligi korxonaning moliyaviy natijalari, investitsion jozibadorligi va boshqaruv qarorlarining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ushbu yo'nalish mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

Xarajatlar hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rgangan G. Narziyeva va hammualliflar korxonalarda IFRS talablarini qo'llash natijasida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va taqqoslanuvchanligi ortishini ta'kidlaydilar. Tadqiqotchilar xarajatlarni to'g'ri tasniflash va tan olish korxonalar faoliyatining moliyaviy samaradorligini baholash imkoniyatlarini kengaytirishini asoslab berganlar [5].

N. J. Nomozov ishlab chiqarish xarajatlarini MHXS asosida hisobga olish masalalarini tadqiq etib, milliy standartlardan xalqaro standartlarga o'tish davrida zaxiralarni baholash, tannarx tarkibini shakllantirish va xarajatlarni e'tirof etish mezonlarida sezilarli farqlar mavjudligini qayd etadi. Muallifning fikricha, ushbu tafovutlar amaliyotda xarajatlar hisobini yuritishda qo'shimcha metodologik yondashuvlarni talab qiladi [6].

B. J. Mirzanov va T. N. Joldasbaeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston buxgalteriya hisobi tizimini MHXS talablariga moslashtirishning nazariy asoslari yoritilgan. Mualliflar xalqaro standartlar asosida xarajatlarni tan olish va baholash mexanizmlarini takomillashtirish moliyaviy axborot sifati hamda investitsion muhitning yaxshilanishiga xizmat qilishini ta'kidlaydilar [7].

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va xarajatlarni hisobga olish usullarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan B. A. Igamov ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqib xarajatlarni hisobga olishning buyurtmali va jarayonli usullarini qo'llash muhimligini asoslaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tannarxni aniqlash metodikasining to'g'ri tanlanishi boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [8].

N. T. Qudbiyev, U. Sh. Haydarov va Sh. A. Kurbonovlar zamonaviy xarajatlar hisobi tizimlarini o'rganib, Direct-



costing, Standard-costing, ABC-costing va Kaizen-costing usullarining afzalliklarini tahlil qilganlar. Ularning fikricha, zamonaviy kalkulyatsiya usullarini joriy etish korxonalarda xarajatlarni nazorat qilish samaradorligini oshirib, resurslardan foydalanish darajasini yaxshilaydi [9].

Sh. X. Rasulova raqamli iqtisodiyot sharoitida xarajatlar hisobini avtomatlashtirish masalalarini tadqiq etib, zamonaviy axborot texnologiyalari xarajatlarni hisobga olish jarayonida inson omili ta'sirini kamaytirishi va hisob ma'lumotlarining aniqligini oshirishini qayd etadi. Muallif avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish IFRS talablarini amaliyotga tatbiq etishda muhim vosita ekanligini asoslaydi [10].

To'qimachilik sanoatida xarajatlarni hisobga olish muammolarini o'rgangan N. N. Ismailov ushbu tarmoqda ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi, bilvosita xarajatlar ulushining yuqoriligi hamda xomashyo xarajatlarning salmog'i katta ekanligi sababli xarajatlarni taqsimlashda qator muammolar yuzaga kelishini ko'rsatadi. Tadqiqotda mazkur muammolarni hal etish uchun zamonaviy boshqaruv hisobi elementlarini joriy etish tavsiya etilgan [11].

Xorijiy olimlar orasida G. I. Jaber, V. A. Kiryanova va V. V. Krylova strategik boshqaruv hisobi konsepsiyasi doirasida xarajatlarni boshqarish masalalarini tadqiq qilganlar. Ularning fikricha, xarajatlar hisobi korxonaning strategik maqsadlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etilishi lozim. Bunday yondashuv korxonaning uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlashga xizmat qiladi [12].

O. V. Eliseeva, A. Yu. Busheva va E. V. Gudojnikovalar xarajatlarni boshqarish tizimini rejalashtirish, hisobga olish, nazorat qilish va tahlil qilish funksiyalarining o'zaro bog'liqligi asosida tadqiq etganlar. Ular xarajatlarni budjetlashtirish va nazorat qilish korxonada moliyaviy natijalarini yaxshilashning muhim omili ekanligini ta'kidlaydilar [13].

I. P. Kovaleva va M. S. Strijak ishlab chiqarish xarajatlari boshqaruv hisobining amaliy jihatlarini o'rganib, bilvosita xarajatlarni taqsimlash bazalarini takomillashtirish mahsulot tannarxini aniq shakllantirish imkonini berishini ko'rsatganlar. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish xarajatlarni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini oshirishga xizmat qiladi [14].

Shuningdek, Z. A. Bidjeyeva va L. S. Botasheva tannarx kalkulyatsiyasi va xarajatlarni hisobga olish usullarini tahlil qilib, xarajatlarni samarali boshqarish korxonada rentabelligini oshirishning eng muhim omillaridan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [15].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, IFRSga o'tish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlari hisobining asosiy muammolari xarajatlarni tan olish mezonlarining o'zgarishi, bilvosita xarajatlarni taqsimlashning murakkabligi, zamonaviy kalkulyatsiya usullarining yetarli darajada qo'llanilmasligi hamda axborot tizimlarining integratsiyalashmaganligi bilan bog'liq. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar natijalari xarajatlar hisobini raqamlashtirish, zamonaviy boshqaruv hisobi usullarini joriy etish va IFRS talablariga mos metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish mazkur muammolarni bartaraf etishning ustuvor yo'nalishlari ekanligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)ga o'tish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlari hisobining mavjud muammolarini aniqlash va ularni takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish maqsadida ilmiy bilishning bir qator usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, guruhlash, taqqoslash hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzishga o'tkazish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri ishlab chiqarish xarajatlari hisobini xalqaro talablarga moslashtirish hisoblanadi. Chunki aynan ishlab chiqarish tannarxi korxonaning foydaliligi, eksport salohiyati va investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, milliy amaliyotda xarajatlarni hisobga olish tizimi asosan soliq hisobi va moliyaviy natijalarni aniqlashga yo'naltirilgan bo'lsa, IFRS konsepsiyasida xarajatlar hisobi korxonada resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish vositasi sifatida qaraladi. Shu sababli xalqaro standartlarga o'tish jarayonida korxonalarda xarajatlarni tan olish, guruhlash va taqsimlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga keladi.

Tahlil obyekti sifatida O'zbekiston to'qimachilik sanoatining yirik vakillaridan biri bo'lgan "Indorama Kokand Textile" AJ faoliyati asosida ishlab chiqilgan iqtisodiy model tanlandi. Mazkur korxonada paxta tolasini chuqur qayta ishlash, kalava ip va tayyor mato ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Korxonada faoliyatining texnologik murakkabligi hamda xomashyo xarajatlari ulushining yuqoriligi xarajatlar hisobini IFRS talablari asosida tashkil etish masalasini

ayniqsa dolzarb qiladi (1-rasm).



1-rasm. To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi<sup>1</sup>

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tannarx tarkibida asosiy ulush xomashyo xarajatlariga to'g'ri keladi. Ularning ulushi 57,8 foizga teng. Bu korxonada faoliyatining material sig'imi yuqori ekanligini hamda mahsulot tannarxiga xomashyo narxlaridagi o'zgarishlar sezilarli ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Shu sababli xomashyo xarajatlarini samarali boshqarish va resurslardan oqilona foydalanish korxonada rentabelligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, bu xomashyo hisobini tashkil etish va inventarizatsiya tizimining sifati mahsulot tannarxiga bevosita ta'sir ko'rsatishini anglatadi. IFRSning IAS 2 "Inventories" standarti talablariga muvofiq zaxiralarni baholash va xarajatlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritish mezonlari aniq belgilangan. Biroq amaliyotda ayrim korxonalarda ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar ham tannarx tarkibiga kiritilishi kuzatiladi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi bilan bog'liq muammolar tizimlashtirildi (1-jadval).

1-jadval

IFRSga o'tishda ishlab chiqarish xarajatlari hisobining asosiy muammolari<sup>2</sup>

| Muammo turi             | Muammoning mazmuni                                  | Ta'siri                             |
|-------------------------|---|-------------------------------------|
| Metodologik             | Xarajatlarni tan olish mezonlaridagi farqlar        | Tannarxning noto'g'ri shakllanishi  |
| Hisob siyosati          | Xarajatlarni tasniflashdagi tafovutlar              | Moliyaviy natijalarning buzilishi   |
| Axborot texnologiyalari | ERP tizimlarining moslashtirilmaganligi             | Operativ tahlilning qiyinlashishi   |
| Boshqaruv               | Xarajatlar markazlari bo'yicha hisob yuritilmasligi | Nazorat samaradorligining pasayishi |

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) o'tish jarayonida ishlab chiqarish korxonalari, ayniqsa to'qimachilik sanoati subyektlari qator metodologik, tashkiliy va texnologik muammolarga duch kelmoqda. Mazkur muammolar korxonalarda xarajatlar hisobining aniqligi va ishonchligiga

1 Manba: Muallif tomonidan "Indorama Kokand Textile AJ" misolida ishlab chiqarish xarajatlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2 Manba: Muallif tomonidan IFRS 1 First-time Adoption of International Financial Reporting Standards, IAS 2 Inventories, IAS 1 Presentation of Financial Statements hamda xalqaro amaliyot materiallari asosida tuzilgan.



bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, metodologik muammolar xarajatlarni tan olish mezonlaridagi farqlar bilan bog'liq bo'lib, milliy hisob standartlari va IFRS talablari o'rtasidagi tafovutlar mahsulot tannarxining noto'g'ri shakllanishiga olib kelishi mumkin. Natijada korxonada faoliyati samaradorligini baholashda xatoliklar yuzaga keladi.

Ikkinchidan, hisob siyosati bilan bog'liq muammolar xarajatlarni tasniflash usullaridagi farqlarda namoyon bo'ladi. Ayrim xarajatlarning operatsion yoki davr xarajatlari sifatida noto'g'ri e'tirof etilishi moliyaviy natijalarning buzilishiga sabab bo'ladi. Bu esa investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun taqdim etilayotgan moliyaviy hisobotlarning ishonchligini pasaytiradi.

Uchinchidan, tashkiliy muammolar orasida IFRS bo'yicha malakali mutaxassislarining yetishmasligi alohida ahamiyat kasb etadi. Xodimlarning xalqaro standartlar talablarini yetarli darajada bilmasligi hisob ma'lumotlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, hisobotlarda xatolarning ko'payishiga olib keladi.

To'rtinchidan, axborot texnologiyalari bilan bog'liq muammolar ko'plab korxonalarda foydalanilayotgan ERP tizimlarining IFRS talablariga to'liq moslashtirilmaganligi bilan izohlanadi. Natijada xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayoni murakkablashadi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi pasayadi.

Nihoyat, boshqaruv muammolari xarajatlar markazlari bo'yicha hisob yuritish amaliyotining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi bilan bog'liq. Xarajatlarning javobgarlik markazlari kesimida hisobga olinmasligi nazorat mexanizmlarining samaradorligini kamaytirib, resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Milliy amaliyotda mazkur xarajatlar odatda ish haqi fondi yoki ishlab chiqarish hajmiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. IFRS talablarida esa xarajatlarni taqsimlash iqtisodiy mazmun va resurslardan foydalanish darajasiga asoslanishi lozim.

Masalan, "Indorama Kokand Textile" AJ faoliyatida ikkita asosiy mahsulot turi ishlab chiqariladi:

Kalava ip — paxta tolalarini yigirish jarayoni natijasida olinadigan yarim tayyor yoki tayyor mahsulot bo'lib, keyinchalik to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida xomashyo sifatida foydalaniladi.

Oqartirilgan mato — yigirilgan ipdan tayyorlangan gazlamaga bo'yash va pardozlashdan oldingi oqartirish ishlovlari berilishi natijasida olinadigan tayyor mahsulot hisoblanadi (2-jadval).

## 2-jadval

"Indorama Kokand Textile AJ" misolida mahsulot turlari bo'yicha xarajatlar (shartli model, mln so'm)<sup>3</sup>

| Ko'rsatkich                        | Kalava ip | Oqartirilgan mato |
|------------------------------------|-----------|-------------------|
| Xomashyo                           | 3 100     | 2 450             |
| Ish haqi                           | 760       | 820               |
| Energiya xarajatlari               | 410       | 580               |
| To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar jami | 4 270     | 3 850             |

Ushbu korxonada ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda xarajatlar mahsulot turlari bo'yicha alohida guruhlanadi. To'g'ridan to'g'ri xarajatlar (paxta tolasi, asosiy ishchilarning ish haqi va boshqalar) bevosita mahsulot tannarxiga kiritiladi, umumishlab chiqarish xarajatlari esa tanlangan taqsimlash bazasi (ish haqi, mashina-soatlar yoki ishlab chiqarish hajmi) asosida mahsulotlar o'rtasida taqsimlanadi.

Korxonaning umumishlab chiqarish xarajatlari 1 500 mln so'mni tashkil etgan. An'anaviy yondashuv bo'yicha xarajatlar ish haqi ulushiga qarab taqsimlanadi:

Kalava ip ulushi:  $760 / (760+820)=48,1\%$

$1\ 500 \times 48,1\%=721,5$  mln so'm

Oqartirilgan mato ulushi:

$820 / (760+820)=51,9\%$

$1\ 500 \times 51,9\%=778,5$  mln so'm

Natijada mahsulot tannarxlari quyidagicha shakllanadi (3-jadval).

3 Manba: Muallif tomonidan "Indorama Kokand Textile" AJ faoliyatining texnologik xususiyatlari va O'zbekiston to'qimachilik sanoati bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan shartli hisob-kitoblar.

3-jadval  
An'anaviy usul bo'yicha tannarx<sup>4</sup>

| Mahsulot          | To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar | Bilvosita xarajatlar | Jami tannarx |
|-------------------|-------------------------------|----------------------|--------------|
| Kalava ip         | 4 270                         | 721,5                | 4 991,5      |
| Oqartirilgan mato | 3 850                         | 778,5                | 4 628,5      |


Biroq ishlab chiqarish texnologiyasi chuqurroq tahlil qilinganda Oqartirilgan mato ishlab chiqarish jarayoni kalava ip ishlab chiqarishga nisbatan murakkabroq ekanligi aniqlanadi. Xususan, ushbu mahsulotni tayyorlashda qo'shimcha texnologik operatsiyalar, jumladan, Oqartirish, yuvish, quritish va sifat nazorati bosqichlari amalga oshiriladi. Mazkur jarayonlar ko'proq energiya resurslari sarfini, ishlab chiqarish uskunalaridan uzoqroq foydalanishni hamda qo'shimcha xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar faoliyatini talab etadi. Natijada umumishlab chiqarish xarajatlarining katta qismi aynan Oqartirilgan mato ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, an'anaviy taqsimlash usuli bu holatni to'liq aks ettirmaydi.

IFRS tamoyillariga muvofiq xarajatlarni iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib taqsimlash zarur bo'lganligi sababli, tadqiqotda Activity-Based Costing (ABC-costing) usulidan foydalanildi. Ushbu yondashuv xarajatlarni mahsulot hajmiga emas, balki xarajatlarni yuzaga keltiruvchi omillar (cost drivers) asosida taqsimlash imkonini beradi. Jumladan, uskunalaridan foydalanish soatlari, energiya iste'moli hajmi, texnologik operatsiyalar soni va xizmat ko'rsatuvchi bo'linmalar faoliyati asosiy taqsimlash mezonlari sifatida qabul qilindi. Natijada umumishlab chiqarish xarajatlari mahsulotlar o'rtasida yanada adolatli va iqtisodiy jihatdan asoslangan tarzda qayta taqsimlandi. Shu sababli ABC-costing yondashuvi asosida xarajatlar qayta taqsimlandi (4-jadval).

4-jadval  
ABC-costing asosidagi taqsimlash natijalari<sup>5</sup>

| Mahsulot          | Bilvosita xarajatlar (ABC) | Jami tannarx |
|-------------------|----------------------------|--------------|
| Kalava ip         | 610                        | 4 880        |
| Oqartirilgan mato | 890                        | 4 740        |

Hisob-kitoblar natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy taqsimlash usuli Oqartirilgan mato tannarxini sun'iy ravishda kamaytirib, kalava ip tannarxini esa nisbatan yuqori ko'rsatgan. Bunday holat mahsulotlar bo'yicha haqiqiy xarajatlar tarkibini to'liq aks ettirmaydi va rentabellik darajasini baholashda sezilarli xatoliklarga sabab bo'lishi mumkin. Natijada korxonah rahbariyati ayrim mahsulotlarni yuqori foydali deb baholashi, aslida esa ularning ishlab chiqarilishi ko'proq resurs talab qilayotgan bo'lishi ehtimoli yuzaga keladi. Shu bilan birga, tannarxi asossiz ravishda yuqori shakllantirilgan mahsulotlar bo'yicha narx belgilash siyosati ham noto'g'ri yo'nalishda olib borilishi mumkin (2-rasm).



2-rasm. IFRSga o'tishda xarajatlar hisobining transformatsiya modeli<sup>6</sup>

4 Manba: Muallif tomonidan "Indorama Kokand Textile" AJ faoliyatining texnologik xususiyatlari va O'zbekiston to'qimachilik sanoati bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlar asosida tuzilgan shartli hisob-kitoblar.

5 Manba: Muallif tomonidan Indorama Kokand Textile AJ faoliyati bo'yicha ishlab chiqilgan shartli iqtisodiy model va ABC-costing metodologiyasi asosida tuzilgan hisob-kitoblar.

6 Manba: Muallif tomonidan IFRS (IAS 2 "Inventories", IAS 1 "Presentation of Financial Statements") talablari asosida ishlab chiqilgan.



ABC-costing usuli asosida amalga oshirilgan taqsimlash esa xarajatlarning yuzaga kelish manbalari va resurslardan foydalanish darajasini aniqroq hisobga olish imkonini beradi. Natijada har bir mahsulot turi bo'yicha tannarx iqtisodiy mazmuniga yaqin shakllanadi, bu esa mahsulot rentabelligini obyektiv baholash, ishlab chiqarish dasturini optimallashtirish hamda xarajatlarni qisqartirish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborot bazasini yaratadi. Bundan tashqari, tannarxning aniq hisoblanishi korxonaning moliyaviy natijalarini ishonchli aks ettirishga, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, xarajatlar markazlari bo'yicha hisob yuritish tizimi joriy etilgan korxonalarda tannarx hisobining aniqlik darajasi yuqoriroq bo'ladi. Ayniqsa, energiya resurslari sarfi yuqori bo'lgan ishlab chiqarishlarda xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha guruhlash rentabellikni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, korxonalarda ERP tizimlari va raqamli boshqaruv platformalaridan foydalanish xarajatlar hisobining shaffofligini oshirmoqda. Tadqiqot davomida raqamlashtirish darajasi yuqori bo'lgan korxonalarda hisobot tayyorlash muddati qisqarishi, xatoliklar kamayishi va boshqaruv qarorlarining tezkorligi oshishi kuzatildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, IFRSga o'tish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish nafaqat hisobot sifatini oshiradi, balki mahsulot tannarxini optimallashtirish, foyda marjasini aniqlash va investitsion qarorlar qabul qilish samaradorligini ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)ga o'tish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy natijalarini ishonchli aks ettirish, mahsulot tannarxini aniq shakllantirish hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganishlar natijasida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tizimida metodologik, tashkiliy, texnologik va boshqaruv bilan bog'liq qator muammolar mavjudligi aniqlandi.

Tadqiqot doirasida IFRS talablari asosida ishlab chiqarish xarajatlari hisobining transformatsiya modeli ishlab chiqildi hamda xarajatlarni iqtisodiy mazmuni bo'yicha guruhlash, xarajatlar markazlari kesimida hisobga olish va ABC-costing yondashuvini qo'llashning o'zaro integratsiyalashgan mexanizmi taklif etildi. Mazkur yondashuv ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni shakllantirishning aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan tavsiyalar ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish, moliyaviy hisobot sifatini oshirish hamda korxonalar resurslaridan foydalanish samaradorligini kuchaytirish imkonini beradi. Taklif etilgan yondashuvlar, ayniqsa, to'qimachilik sanoati korxonalarida tannarxni boshqarish va rentabellikni oshirishda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- ishlab chiqarish korxonalarida IAS 2 "Inventories" talablari asosida xarajatlarni tan olish va baholash mezonlarini takomillashtirish;
- umumishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashda resurslardan foydalanish darajasini aks ettiruvchi ABC-costing usulini bosqichma-bosqich joriy etish;
- xarajatlar markazlari va javobgarlik markazlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimini rivojlantirish;
- ERP tizimlarini IFRS talablariga moslashtirish va xarajatlar hisobini raqamlashtirish darajasini oshirish;
- IFRS bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash hamda korxonalar xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish;
- ishlab chiqarish xarajatlari hisobini moliyaviy va boshqaruv hisobi tizimlari bilan integratsiyalash orqali boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish.

Qisqacha xulosa qilib aytganda, IFRS talablari asosida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur tadqiqot natijalari ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlar hisobini modernizatsiya qilish bo'yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ali, L. M. N. Evaluating the Compatibility of Iraq's 2024 Unified Accounting System with International Financial Reporting Standards (IFRS)".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020-yildagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-4746047>
3. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., Warfield, T. D., Wiley, L. D., Wiecek, I. M., & McConomy, B. J. (2025). Intermediate Accounting, Volume 1. John Wiley & Sons.
4. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. *Academica: An international multidisciplinary research journal*, 11(4), 328-333.
5. Narziyeva, G., Berdiyev, U. M., & O'ktamov, N. A. (2026). Xalqaro standartlar asosida xarajatlar hisobini joriy etish



- samaradorligi. Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali, 9(1), 186–190
6. Nomozov, N. J. (2026). MHXS ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI. Экономика и социум, (3-1 (142)), 338-341.
  7. Mirzanov, B. J., & Joldasbaeva, T. N. (2025). O'zbekiston Respublikasida xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish masalalari. European Journal of Modern Technology and Computational Science, 5(11), 380–382.
  8. Igamov, B. (2021). HARAJATLAR HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI HISOBGA OLIISH HOLATI VARIVOJLANISHI. Scientific progress, 2(8), 328-332.
  9. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). Harajatlar hisobning zamonaviy usullari. Scientific progress, 3(1), 442-448.
  10. Rasulova, Sh. X. (2024). AVTOMATLASHTIRISH ASOSIDA XARAJATLARNI HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (7), 548-558.
  11. Nadirovich, I. N. (2026). TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA XARAJATLARNI HISOBGA OLIISH VA TASNIFLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (14. I), 5-19.
  12. Жабер, Г. И., Кирьянова, В. А., & Крылова, В. В. (2014). Аспекты организации стратегического управленческого учета затрат в экономическом субъекте. Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки, (2-1), 60-68.
  13. Елисеева, О. В., Бушева, А. Ю., & Гудожникова, Е. В. (2022). Особенности учета затрат с позиции управления на предприятии. Вестник Российского университета кооперации, (1 (47)), 39-44.
  14. Ковалева, И. П., & Стрижак, М. С. (2022). Управленческий учет производственных затрат организации: российский опыт. Учет. Анализ. Аудит, 9(3), 64-77.
  15. Биджиева, З. А., & Боташева, Л. С. (2022). Калькулирование себестоимости продукции и метода учета затрат. Управленческий учет, (4-3), 244-252.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)